

## XX ASR BOSHLARIDA NAVOIY AN'ANASI

*Axrorova Mahina Avazovna*

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti o'qituvchisi*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Jadid adabiyoti namoyandalari Alisher Navoiy asarlarini puxta o'rgangani, o'z asarlarida Navoiyga ergashgani, uning an'analarini g'oyaviy davom etgani misollar bilan yoritilib berilgan. Maqolada adabiy an'anani 3 turi ajratilib, uning har biri misollar bilan izohlab ko'rsatib berilgan.*

*Kalit so'zlar: Jadid, mumtoz adabiyoti, tazmin, nazira, taxmis, "Hayrat ul abror", qanoat, g'oyaviy an'ana.*

## НАВОИЙСКАЯ ТРАДИЦИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

*Axrorova Mahina Avazovna*

*Преподаватель Самаркандского государственного университета имени Шарофа Рашидова*

*Аннотация. В этой статье подробно описывается изучение творчества Алишера Навои представителями Джадидской литературы, следование Навои в своих произведениях, идейное продолжение его традиций. В статье показано, как разделить литературную традицию на 3 типа, объясняя каждый из них примерами.*

*Ключевые слова: Джадид, классическая литература, tazmin, Назира, тахмис, "Хайрат уль Аброр", канаат, идеологическая традиция.*

## NAVOI TRADITION AT THE BEGINNING OF THE XX CENTURY

*Akhrorova Mahina Avazovna*

*Teacher of Samarkand State University named after Sharof Rashidov*

*Annotation. This article describes in detail the study of Alisher Navoi's work by representatives of Jadid literature, the following of Navoi in their works, the ideological continuation of his traditions. The article shows how to divide the literary tradition into 3 types, explaining each of them with examples.*

*Key words: Jadid, classical literature, tazmin, Nazira, tahmis, "Khairat ul Abror», kanaat, ideological tradition.*

Zamon o'zgargani sayin barcha sohada taraqqiyot bo'ladi. Mana shu taraqqiyotni adabiyotda ham ko'rishimiz mumkin. Jadid adabiyotida katta o'zgarish bo'lgan, yangi janrlar, uslublar paydo bo'lgan. Lekin har bir yangilik zamirida an'anaviylik yotadi. Yozuvchi va shoirlarimiz har bir yaratgan asarlarida sinalgan tajribaga tayanadi. "Adabiy an'ana – dunyoni badiiy idrok etish, bilish sohasida davrdan davrga, avloddan avlodga o'tib kelgan adabiy tajribalar: estetik qarashlar, tasviriy vositalar, tildagi obrazlilik, emotsionallik va uslubdagi rang-baranglik. O'tmish yozuvchilarining ijod tajribasida sinalgan, ustuvor va muhim g'oyaviy-badiiy boylklarni yosh bo'g'in o'z davri talabiga ko'ra qayta ishlab, ijodiy rivojlantiradi[1]. Yuqoridagi fikrni inobatga olgan holda, Adabiy an'ana ko'r-ko'rona taqlid emas, ya'ni o'z ustozlari qo'llagan adabiy janr, qahramonlarni yangi o'z zamonasiga moslab, unga yangicha ruh berish. Bu badiiy asarga yangi hayot berish degani. Alisher Navoiy asarlar hech qachon eskirmaydi. Uning g'oyaviy qarashlari barcha davrlarga mos keladi. Jadid ijodkorlari ham mana shu g'oyaviy qarashlarni o'z davriga munosib qilib qayta ijod qilgan. "Jadid" arabcha yangi degan so'zdan olingan bo'lib, yangilik tarafdori-degan ma'noni anglatadi. Mana shunday yangilik tarafdorlari o'zbek adabiyotida yangi janrlarni, xususan, yevropa an'alariga tayanib roman janrida ijod qilib, o'zbek romanchiligining rivojlanishi uchun katta hissa qo'shishgan. Bunga misol sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" Cho'lponning "Kecha va Kunduz" va boshqa romanlarni keltirishimiz mumkin. Mana shunday yangilik novatorlikning ham zaminida an'analar ham yotibdi. Obrazlarni yaratishda yozuvchilar, mumtoz adabiyotimiz vakillarining an'alarini davom ettirgan. Yangi janr bo'lishiga qaramay asarda o'zimizning milliyligimiz, o'zbekona urf-odatlarimiz, ota-onaga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondorchilik odobi kabi udumlarimiz ufurub turibdi. An'ana barcha davrda bo'lgan. Jadid adabiyoti vakillari uchun an'ana Alisher Navoiy kabi mumtoz adabiyot vakillari ijodlari bo'lsa, Navoiy uchun Xamsa yaratish an'ana bo'lgan. Mana shu jihatdan kelib chiqib, an'analarni quyidagi 3 turlarga ajratishimiz mumkin:

1. Asliy an'ana. Bunda yozuvchi yoki shoir yaratilgan an'anadan g'azal yoki she'ridan bir parcha keltirib, uni davom etadi. Ba'zida g'azal yoki she'ring oxirida kimning an'anasiga murojaat qilganini ham keltirib o'tadi. Masalan: tazmin bog'lash, nazira bog'lash, taxmis bog'lash bu to'g'ridan-to'g'ri an'ana sanaladi. A) Tazmin (arab.-she'rdan bir parcha olish, ko'chirish)-poetik san'ati turi, B) Nazira (arab.) - Sharq adabiyotidagi an'anaviy usullardan biri, o'tgan yoki zamondosh adib asariga o'xshatma tariqasida yozilgan asar. Nazirani mumtoz shoirlar tatabbu deb ham yuritishgan. Navoiy o'z «Xamsa»sining Nizomiy «Panj ganji»ga tatabbu deb ataydi [1].D) Taxmis (arab. - beshtalik qilish, beshtaga yetkazish) - muxammasning bir turi. Taxmis bandleri ham muxammas singari 5 misradan iborat; ular bir shoirgagina tegishli bo'lmay, balki ikki shoirning misralaridan tashkil topadi: dastlabki 3 misra taxmis yozayotgan shoir qalamiga, keyingi 2 misra esa taxmis yozilayotgan shoir g'azaliga mansub bo'ladi[2].

2. Obrazlar an'anasi: Unda yozuvchi murojaat qilmoqchi qilmoqchi bo'lgan o'zidan oldin yaratilgan obrazga yangicha ruh berib, o'z davriga o'sha obrazni moslashtirib beradi. Bunga Misol qilib, Abdulla Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobida ham ko'rishimiz mumkin. Bu kitobda Navoiy "Hayrat ul-abror"da keltirilgan ikki do'st hikoyatiga bir xil obrazlar o'xshashligini uchratishimiz mumkin:

Chin do'st

Ikki odam bir-biriga do'st bo'ldilar chunon,  
 Bir nafas ayrilmas erdi bir-biridan ikki jon.  
 Maslahat birla safar qilmoqni aylab ixtiyor,  
 Bo'ldilar sahro tamoshosi uchun bir kun ravon.  
 Yo'lda bir daryodan o'tmak to'g'ri keldi do'stlara,  
 O'lturub bir kemaga ketmog'da erdilar hamon.  
 Bir zamon to'lqun kelub ul kemani qildi xarob,  
 Ul iki o'rtog' yiqildilar suv uzra nogahon.  
 Suv yuzinda ul zamon ketmakda erdilar oqib,  
 Suvchilar keldilar ushlab olg'ali suvdan amon.  
 Ul iki do'stning birini tutsa, suvchig'a dedi:  
 Qo'y mani, avval borub, do'stumni qutqar beziyon.  
 Suvchi borub ushlasa o'rtog'ini,  
 Ul ham aylar do'st qutulsun deb fig'on.  
 Ko'rdingizmi, ey suchuk o'g'lonlarim,  
 Do'stlig'dan bu siza bir doston.

Avloniy qalamiga mansub "Chin do'st" hikoyasida ikki do'st bir-birini juda qadrlashini, hatto, cho'kayotgan paytda ham o'z jonini qutqarishdan oldin, do'stini "beziyon" qutqarishini aytgan. Xuddi mana shu hikoyani yozishda Abdulla Avloniy Alisher Navoiy an'anasini davom ettirgan. Har ikki hikoyatda do'stga muhabbat, sadoqatning eng yuqori pog'onalari aks ettirilgan. Do'stlik kabi buyuk tushuncha davr, vaqt tanlamasligini shu ikki hikoyadan ham anglashimiz mumkin. Alisher Navoiy "Hayrat ul-abror" dostoning sakkizinchi maqolotida "Ikki vafoliq yor xususida" hikoyatini keltiradi. Unda to'rt ulus xoni Amir Temur Ko'ragon iqlimlarni bosib olar ekan, Hindiston uchun juda qattiq janglar bo'ldi. Yovlar kofir bo'lib, shahanshoh ularning barchasini qirib tashlashni buyuradilar. Har bir askar o'z xohishicha bosh kesishga kirishadi. Boshlar sellardagi toshlar kabi hamma joyni to'ldiradi. Shu mahal ikki do'st qotillarga duch keladi. Sipoh ulardan birini boshini kesayotganda, ikkinchisi "Senga bosh kerak bo'lsa, uning boshiga tegmay, mening boshimni kesa qol!" deb iltijo qila boshlaydi. Sipoh oldingi hindini qoldirib, keyingisini o'ldiray deb tig' ko'targanda, o'rtog'i qotil oyog'iga bosh qo'yib o'zini o'ldirishni tilardi. Ikki do'st o'z boshlarini oldin kestirish uchun bir-birlari bilan talashishardi. Shu hol davom etar ekan, el orasida "al-omon" ya'ni "o'ldirishni to'xtatib, qolganlarni omon qoldiringlar", degan e'lon eshitiladi.

Ey Navoiy, xudo senga shunday yor bersa,  
 Sen ham unga boshing bilan joningni fido qilgin.

Abdulla Avloniy Navoiy hikoyatidagi obrazlarni o'z asarida ham bergan. Mana shu obrazlar an'anasi hisoblanadi.

3.G'oyaviy an'ana: G'oyaviy an'anada yozuvchi ma'lum bir asarda berilgan g'oyaga yangicha ruhda beradi. Misol uchun: Navoiy "Hayrat-ul abror" dostonining yettinchi maqoloti Qanoat bobiga bag'ishlangan. "Kim uchun qanoat bir fan, odat bo'lib xizmat qilgan ekan, bilingki, boy qilgan ham ana

shu qanoat bo'lgan. Oltin-kumushlari turli bezaklarni boylik hisoblamagin, chinakam boylik qanoat ganjidir... Shoh tama' qilsa, jig'ildonga aylansa, qanoatli darvesh podshoh bo'lg'usidir"[3].

Unda Navoiy inson qanoatli bo'lishi kerakligini, qanoatli inson nimagaki erishsa, shundan ham xursand bo'lib, hatto eng boy odam bir nimadan rohatlanamasa ham, qanoatli inson shundan rohatlanib, o'zini shohlarcha his qilishini aytib o'tgan. Xuddi mana shunday qanoat haqidagi xulosalarni biz Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida ham ko'rishimiz mumkin: "Qanoat bir xazinadirki, naqdinasi kundan-kun ortar. Bu xazinaga ega bo'lgan kishilar umrlarini shavq va rohatda kechirurlar"[4].

Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, har ikki ijodkor ham qanoatga bir xil ta'rif bergan. Agar inson qanday sharoitda bo'lishidan qat'iy nazar qanoat bilan yashasa, u haqiqiy boy inson sanaladi. Agar, qanoat qilmay yashasa, hatto, shoh bo'lsa ham u xotirjam hayot kechirolmay, o'zining nafsiga qul bo'lib yashashini ta'kidlagan. Bunga misol sifatida Navoiy ikki do'stni keltirib, biri qanoat qilgani uchun podshoh bo'lganini, birini esa ta'ma xoksor qilganini keltirib o'tgan. Shunga o'xshash hikoyani Avloniy ijodida ham uchratishimiz mumkin. "Birinchi muallim" kitobidan "Qanoat" hikoyatida bir kishining Ali va Vali ismli ikki o'g'li bo'lgan ekan. Ali qanoatli, Vali esa qanoatsiz ekan. Bir kuni otasi bolalalarini sinash uchun bozordan olma olib kelib, "bolalarim keling, olma beraman",- debdi. Vali tezlik bilan kelib: "Menga hammasini bering"-debdi, Ali esa "Otajon menga bittasini bersangiz bo'ladi"-debdi. Otasi Alining qanoatiga ofarin qilib, quchog'iga olib, ikkita olma beribdi. Ammo, Valiga qanatsiz bo'lma deb adab beribdi.

Qanoat bilan qorun to'ydurursiz,  
Qanoat bo'lmasa, ko'p och qolursiz.  
Qanoatsiz kishi bag'rini dog'lar,  
Qanoatlik kishi og'zini yog'lar.

Yuqoridagi misollardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, har ikki davr ijodkorlarining Mumtoz adabiyot vakili Alisher Navoiy hamda Jadid adabiyoti vakili Abdulla Avloniyning ikki hikoyati zamirida bitta g'oya qanoatli bo'lish g'oyasi yotadi. Bunday asarlardan misollarni juda ko'plab keltirish mumkin. Ularda g'oyaviy an'ana mavjud.

Jadid munaqqidlaridan Vahdud Mahmud shunday degan:

Bir necha yildan beri adabiyot otida bir-ikki she'r majmuasidan boshqa nima chiqdi? Bu bilan adabiy ishlarimiz tuzuk boradir, deyish mumkinmi? Albatta yo'q. Navoiy turk adabiyotining otasidir. Navoiy adabiyot dunyosida juda katta xizmatlar qilg'on bir kishidir. Navoiy turk tilining otasidir. Navoiy buyuk adib, buyuk shoir, buyuk dohiyidir. Faqat qani biz uni taniymizmi? Uning xizmatlarini bilamizmi?! Uning kim ekanidan xabarimiz bormi?! Haligacha uning tarjimai holini bosdirmadik. Bir rasmini chizib chiqarg'on bo'lsak ham asliga uncha muvofiq emasdir. Buxoroning ochilishi bilan Navoiy davri uchun eng muhim vosiqalar bizga ochilg'ondir. Eng muhim kishilarning muhim asarlari, qo'lyozmalari hatto Navoiyning o'z qo'li bilan yozg'on maktublari bor. Ularning rasmlarini olmoq, tarjimai hollariga qo'shmoq, o'shal davrga oid taftishlarga kirishmak kerakdir.

Bundan boshqa har zamonda har yerda yetishgan adib va shoirlarni maydonga otmoq kerak. Bularning orasida adabiyot tarixi uchun eng muhim o'run tutaturg'onlari bordir. Biz bu kun qo'limizdan kelaturgan qadar qilaylik, sekin-sekin tugallash zamonaning ishidir. Bu ishlarni, bu tashabbuslarni qilish uchun ilmiy muassasa va tashkilotlarimizning tirishmog'i kerakdir[5].

Yuqoridagidan ko'rinib turibdiki, jadedlar, Navoiyning o'rganishga, uni chuqurroq anglashga va uning asarlaridagi obrazlarni zamonaga mos ravishda yangi ruh, jon berib qayta tiriltirishga harakat qilishgan. Masalan, Cho'lpon ham, Navoiy ham ko'ngil mavzusidagi g'azal va she'r yaratgan. Ikki buyuk ijodkorning asarini tahlil qilamiz:

Ey ko'ngul, ul otashin orazg'a ko'p o'rganmagil,  
Nogah ayrilsa firoqi o'tig'a o'rtanmagil.  
Tut o'zingga fardu bekaslik balo-yu shiddatin,  
To birovg'a o'rganib, ayru tushub emganmagil.

Alisher Navoiy ko'ngilga murojaat qilib, yorning otashin yuziga o'rganib qolmaslikni, agar undan ayrilib qolsa, uning firoqida o'rtanib qolishi mumkinligini uqtiradi. Sen o'zingga yakkalik, kimsasizlikni odat qil, chunki birovg'a o'rganib qolsang, undan ayrilish juda qiyin bo'lishini keyin azob chekishini aytadi. Navoiy o'z ko'nglini yorning visolidan ozod qilishni istasa, Cho'lpon ko'nglini qullikdan, erksizlikdan ozod qilishni istaydi.

Ko'ngil, sen munchalar nega

Kishanlar birla do‘stlashding?  
 Na faryoding, na doding bor,  
 Nechun sen muncha sustlashding?  
 Haqorat dilni og‘ritmas,  
 Tubanlik mangu ketmasmi?  
 Kishanlar parchalanmasmi?  
 Qilichlar endi sinmasmi?  
 Tiriksan, o‘lmagansan,  
 Sen-da odam, sen-da insonsan.  
 Kishan kiyma,  
 Bo‘yin egma,  
 Ki, sen ham hur tug‘ulg‘onsan![6]

Cho‘lpon nafaqat o‘z ko‘ngliga, balki o‘ziga o‘xshagan erksiz yuraklarga qaratib aytgan edi. U ko‘ngilni nega kishanlar bilan do‘stlashganini, mana shunday qullikka rozi bo‘lib qanday yashashini so‘raydi. Haqorat, tubanlikka guvoh bo‘lgan, unga faryod bilan javob bermagan ko‘ngilning bedorligini, tirikligini eslatadi. Har bir tug‘ilgan banda qullikda emas, hurlikda tug‘ilganligini yodiga keltiradi. Ikki davrning buyuk ijodkorlarida bir xil “ko‘ngil” obrazini ko‘rishimiz mumkin. Ammo ko‘ngilni iki davr vakili ikki xil tarzda, ya‘ni har bir ijodkor o‘z davriga munosib ravishda talqin qiladi. Navoiy mumtoz adabiyoti vakillari kabi majoziy ishq orqali ilohiy ishqni aks ettirib, unga qul bo‘lgan firoq o‘tiga qolishini aytsa, Cho‘lpon jadid namoyandalari kabi xalqni uyg‘otishga zulmga qarshi kurashishga da‘vat qiladi.

Mana shulardan ko‘rib aytish mumkinki, adabiyot hech qachon e‘tiborsiz bo‘lmagan, hamma davrda ham, hamma joyda ham siyosiy hayot adabiy asarlarda yaqoqol namoyon bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000.

Alisher Navoiy Xamsa. Toshkent, Yangi asr avlodi, 2010. 348 b.

Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. Toshkent, “O‘qituvchi” 1992-yil, 10-bet.

Vahdud Mahmud Ilmiy-adabiy vazifalar qarshisida, “Zarafshon” gazetasi, 1924-yil, 21-son.

Cho‘lpon. Tong sirlari. Toshkent, 1922-yil, 7-avgust.

N. Yuldashev, A. Arslonov. Alisher Navoiyning Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon ijodiga ta‘siri, Alisher Navoiy adabiy-ilmiy me‘rosini o‘rganish. Konferensiya materiallari. 2023-yil, 4-son.

Homil Yoqub Cho‘lpon va Navoiy, Toshkent, “Sharq” 1997-yil.